


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 856,7 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,8 foizni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 100,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning 190,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 135,5 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 134,6 % ga o'sishi kuzatildi.

### Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

2023- yil yanvar-mart



2022- yil yanvar-mart



Tog'-kon sanoati va ochiq konlari ishlashi



Ishlab chiqariladigan sanoat




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

**2023- yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)**



**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,02 % ni va o‘sish sur’ati indeksi 90,1 % ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 631,1 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,35 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 0,06 %ni (2022- yil yanvar-mart oylarida – 0,06 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 37,2 % (41,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (2,8 %) va quyi texnologiyali – 53,9 % (52,1 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 2,9 mld. so‘mlik (2022- yil yanvar-mart oylarida 2,4 mld. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1 805,8 mld. so‘mlik (1 599,2 mld. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 204,0 mld. so‘mlik (108,8 mld. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 2 618,4 mld. so‘mlik (1 999,3 mld. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan natura ko‘rinishida  
ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
*(2023- yil yanvar-mart oylari uchun)*

<i>Mahsulot turlari</i>	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart ga nisbatan, % da</i>
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz)	Dona	16 855	17 329	97,3
Maxsus yengil avtomobillar	dona	5 937	3 879	153,1
Aroq	ming litr	57,4	10,1	5,7 m.
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari	ming litr	2,7	5,8	46,6
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari	ming litr	184,4	93,3	197,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	tonna	18 998,9	20 939,8	90,7
Tozalangan o‘simlik yog‘i	tonna	2 309,2	4 278,7	54,0
Xo‘jalik sovuni	tonna	548,76	762,76	71,9
Paxta tolasi	tonna	33 994,1	23 733,3	143,2
Paxta chigit	tonna	55 642,0	52 086,3	106,8
Shakar	tonna	57 053,6	69 028,1	82,7

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – 325,2 mln. kVts. ga, yengil avtomobillar (maxsus avtomobil) – 2 058 donaga, aroq – 47,3 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – 91,1 ming litrga, paxta tolasi – 10 260,8 tonnaga, paxta chigit – 3 555,7 tonnaga ishlab chiqarish ko‘paygan.

## **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 197,1 mldr. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,06 % ni) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati indeksi 35,7 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2023- yil yanvar-mart oylari uchun)**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart iga nisbatan, % da</i>
Elektroenergiya	mln.kVt/s	371,8	46,6	8,0 m.
Issiqlik energiyasi	ming Gkall	56,0	44,6	125,5

### **Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,7 mldr. so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,57 % ni tashkil etdi.

### **Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2023- yil yanvar-mart oylari uchun)**

<i>Faoliyat turlari</i>	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2023- yil yanvar-mart</i>	<i>2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</i>
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar	mlrd.so‘m	28,1	104,7
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mlrd.so‘m	1,2	79,4
Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar	mlrd. so‘m	4,1	77,5

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(2023- yil yanvar-mart oylari uchun)**

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2023- yil yanvar-mart (mlrd. so'm)</i>	<i>2022- yil yanvar-mart (mlrd. so'm)</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami</b>	<b>4 856,7</b>	<b>3 833,9</b>
<b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,9</b>	<b>0,3</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'- kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,9	0,3
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>4 631,1</b>	<b>3 709,7</b>
<i>shundan:</i>		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 040,1	866,7
Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish	317,0	129,3
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 123,4	923,1
Kiyim ishlab chiqarish	22,4	9,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3,7	2,4
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish	11,1	5,4
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	51,4	26,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,8	0,1
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	32,3	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,3	4,3
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	2,4	2,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	25,0	12,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	87,0	45,7
Metallurgiya sanoati	10,6	8,5
Mashina va uskulalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	44,0	29,1

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2023- yil yanvar-mart (mlrd. so‘m)</i>	<i>2022- yil yanvar-mart (mlrd. so‘m)</i>
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,4	0,0
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	22,6	6,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	20,6	60,2
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1 756,3	1 527,9
Mebel ishlab chiqarish	12,9	8,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	35,5	28,2
Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish	5,1	13,0
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>197,1</b>	<b>101,9</b>
<b>Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>27,7</b>	<b>22,0</b>

Iqtisodiy faoliyat turlaridan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 040,1 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida 866,7 mlrd. so‘m), ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 317,0 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida 129,3 mlrd. so‘m), to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1 123,4 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida 923,1 mlrd. so‘m), avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 1 756,3 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida 1 527,9 mlrd. so‘m) o‘tgan 2022- yilning yanvar-mart oylarida nisbatan oshganligini, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 20,6 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida 60,2 mlrd. so‘m), mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish 5,1 mlrd. so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida 13,0 mlrd. so‘m) kamayganligini ko‘rish mumkin.

## Iste'mol mollari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2 769,9 mlrd. so'mlik iste'mol mollari ishlab chiqarilib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 foizni tashkil qildi.

**2022-2023- yil yanvar-mart oylarida iste'mol mollari  
ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm) va o'sish surati, %**



Iste'mol mollari ishlab chiqarishda oziq-ovqat va alkogol mahsulotlari 1 249,6 mlrd. so'mni va 1520,3 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 127,0 foiz va 102,7 foizni tashkil qildi. Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 45,1 foizni va 54,9 foizni tashkil qildi.

**2022-2023- yil yanvar-mart oylarida jami iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



## Hududlar bo‘yicha sanoat va iste’mol mollari ishlab chiqarish


*(2023- yil yanvar-mart oylari uchun)*

*(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)*

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘mda</i>	<i>2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi, %</i>	<i>Iste’mol mollari, mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da</i>
<b>Xorazm viloyat bo‘yicha</b>	<b>4856,7</b>	<b>102,8</b>	<b>2769,9</b>	<b>112,4</b>
Urganch sh.	750,4	104,7	468,3	182,9
Xiva sh.	66,7	108,4	48,9	127,1
Bog‘ot	93,4	100,8	42,3	110,9
Gurlan	159,2	100,3	44,6	119,9
Qo‘siko‘pir	153,8	101,2	22,7	125,0
Urganch	218,3	91,2	78,3	118,5
Hazorasp	126,5	102,7	26,1	147,0
Tuproqqa'l'a	2 372,2	98,8	1 773,6	97,6
Xonqa	246,4	109,6	137,0	173,9
Xiva	124,6	101,2	24,5	122,1
Shovot	226,5	120,8	49,0	158,7
Yangiariq	212,3	103,0	33,0	124,1
Yangibozor	106,3	120,4	21,7	113,8


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Urganch sh. 4,7 foiz, Xiva sh. 8,4 foiz, Bog‘ot 0,8 foiz, Gurlan 0,3 foiz, Qo‘siko‘pir 1,2 foiz, Hazorasp 2,7 foiz, Xonqa 9,6 foiz, Xiva 1,2 foiz, Shovot 20,8 foizga, Yangiariq 3,0 foiz, Yangibozor 20,4 foizga oshganligini, Urganch 8,8 foiz, Tuproqqa'l'a 1,2 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin. Iste’mol mollari bo‘yicha Urganch sh. 82,9 foiz, Xiva sh. 27,1 foiz, Bog‘ot 10,9 foiz, Gurlan 19,9 foiz, Qo‘siko‘pir 25,0 foiz, Urganch 18,5 foiz, Hazorasp 47,0 foiz, Xonqa 73,9 foiz, Xiva 22,1 foiz, Shovot 58,7 foizga, Yangiariq 24,1 foiz, Yangibozor 13,8 foizga oshganligini, Tuproqqa'l'a 2,4 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin.

### Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 48,8 foiz, Urganch shahri 15,5 foiz, Xonqa tumani 5,1 foiz, Shovot tumani 4,7 foiz, Urganch tumani 4,5 foiz, Yangiariq tumani 4,4 foiz, Gurlan 3,3 foiz, Qo'shko'pir tumani 3,2 foiz, Hazorasp tumani 2,6 foiz, Xiva tumani 2,6 foiz, Yangibozor tumani 2,2 foizni, hamda eng past bo'lgan Bog'ot tumani 1,9 foiz va Xiva shahri 1,4 foizni tashkil qildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida, foiz hisobida



Davlat va xususiy biznesning o'zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e'tiborida bo'lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalaridan 2023- yilning yanvar-mart oylarida 2 666,5 mlrd. so‘mlik, hududiy korxonalaridan 2 190,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 11,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,2 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 4 845,6 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan  
sanoat mahsulotlari va iste’mol mollari ishlab chiqarish**


*ming so‘m*

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming so‘m</i>	<i>Iste’mol mollari ming so‘m</i>
<b>Xorazm viloyati bo‘yicha</b>	<b>2 475,8</b>	<b>1 412,1</b>
Urganch sh.	4 992,4	3 115,4
Xiva sh.	687,1	503,8
Bog‘ot	540,4	244,4
Gurlan	1 028,6	287,9
Qo‘siko‘pir	858,2	126,8
Urganch	1 040,9	373,2
Hazorasp	624,7	128,7
Tuproqqał'a	40 821,8	30 521,1
Xonqa	1 262,0	701,7
Xiva	818,5	160,7
Shovot	1 277,0	276,5
Yangiariq	1 752,3	272,7
Yangibozor	1 167,9	238,3

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqa'l'a tumanida (40 821,8 ming so'm), Urganch shahrida (4 992,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 516,6 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qolgan Qo'shko'pir (858,2 ming so'm), Xiva tumani (818,5 ming so'm), Hazorasp tumanida (624,7 ming so'm) va Bog'ot tumanida (540,4 ming so'm) ko'rsatkich past ekanligini ko'rish mumkin.

**2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarishining o'sishi,  
2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, %da**




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2023- yil yanvar-mart oylarida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,7 %ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 892,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 18,4 %ni tashkil etmoqda.

**Hududlar bo‘yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarishdagi ulushi, %da  
(2023- yil yanvar-mart oylari)**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (100,0 %), Urganch (49,9 %), Xiva (48,5 %), Bog'ot (44,1 %), Xonqa (43,6%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqa'l'a (3,7 %) tumanida kuzatildi.


#### **Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi**

Hisobot davrida 22 ta qo'shma korxona tomonidan 670,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 13,8 % ni tashkil etdi.

## Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiylajmi hajmidagi ulushi, %




## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarning umumiylajmi hajmidagi ulushi, %da



### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 4 092 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 702 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiylajmi sonining 17,2 %) Urganch shahriga, 444 tasi (10,9 %) Urganch tumaniga, 370 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga, 376 tasi (9,2 %) Xonqa tumaniga va 327 tasi (8,0 %) Xiva shahriga to'g'ri keladi.

## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



## Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2023- yil yanvar-mart)



Viloyatda 2023- yilning yanvar-mart oylarida 258 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 21 tasi Urganch shahriga, 23 tasi Xiva shahriga, 20 tasi Qo'shko'pir tumaniga, 16 tasi Urganch tumaniga, 12 tasi Xonqa tumaniga, 17 tasi Gurlan tumaniga, 14 tasi Bog'ot tumaniga, 14 tasi Xiva tumaniga, 49 tasi Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

## **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 99 ta loyiha bo‘yicha 258,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

## **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2023- yil yanvar-mart</i>
Loyihalar soni	birlik	111	99
Korxonalar soni	birlik	94	76
Ishlab chiqarish hajmi	mlrd. so‘m	210,2	258,9

## **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari (2023- yil yanvar - mart)**


<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda</i>
--------------------------------	---------------------------------	---	---	--

<b>Jami:</b>	<b>99</b>	<b>258,9</b>	<b>1,7</b>	<b>17</b>
<i>shundan;</i>				
Urganch sh.	36	22,2	0,14	-
Xiva sh.	6	16,3	0,1	13
Bog‘ot	1	-	-	-
Gurlan	10	0,3	-	2
Qo‘siko‘pir	3	1,5	0,1	-
Urganch	10	1,2	-	1
Hazorasp	1	0,2	-	-

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o‘rinlari soni, birlikda</i>
Tuproqqa'l'a	17	216,7	1,3	1
Xonqa	1	-	-	-
Xiva	2	0,1	-	-
Shovot	4	0,6	0,02	-
Yangiariq	3	-	-	-
Yangibozor	5	0,1	-	-

Shahar va tumanlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Urganch shahrida 36 ta loyihada 22,2 mlrd so‘mlik, Xiva shahrida 6 ta loyihada 16,3 mlrd so‘mlik, Gurlan tumanida 10 ta loyihada 0,3 mlrd so‘mlik, Qo‘siko‘pir tumanida 3 ta loyihada 1,5 mlrd so‘mlik, Urganch tumanida 10 ta loyihada 1,2 mlrd so‘mlik, Hazorasp tumanida 1 ta loyihada 0,2 mlrd so‘mlik, Tuproqqa'l'a tumanida 17 ta loyihada 216,7 mlrd so‘mlik, Xiva tumanida 2 ta loyihada 0,1 mlrd so‘mlik, Shovot tumanida 4 ta loyihada 0,6 mlrd so‘mlik va Yangibozor tumanida 5 ta loyihada 0,1 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### **Mahalliylashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda**



Mahalliylashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo‘lgan Tuproqqa'l'a tumani 216,7 foiz, Urganch shahri 22,2 foiz va Xiva shahri 16,3 foizni hamda eng past bo‘lgan Xiva tumani 0,1 foiz va Yangibozor tumani 0,1 foizni tashkil qildi.

## Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

**Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

**Iste’mol mollari** – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

**Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi** – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash Evrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliylashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

**Mahsulot sotish hajmi** – savdo narxlarda keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.